

“Traktorlar va avtomobillar” kafedrasida o‘tkazilgan fan olimpiada g‘oliblariga ishonch bildirildi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari institutining QXM fakulteti “Traktorlar va avtomobillar” kafedrasida qoshida “Traktorlar va transport vositalari” fani bo‘yicha 1-bosqich Respublika fan olimpiadasi o‘tkazildi. Olimpiadada QXM va GIM fakultetlarining “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish” hamda “Suv xo‘jaligi melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash” bakalavr ta‘lim yo‘nalishi talabalari faol ishtirok etishdi.



Nizomda belgilangan tartib asosida o‘tkazilgan olimpiadada, talabalarning eng bilimdonlari aniqlab olindi. Respublika fan olimpiadasining 1-bosqich natijalariga ko‘ra:

1-o‘rin QXM fakulteti 305 - gurux talabasi Mustafaqulov Umidjon

2-o‘rin QXM fakulteti 403 - gurux talabasi Yakubova Mavjuda

3-o‘rin GIM fakulteti 303 - guruh talabasi Rajabov Shamsiddinga nasib etdi.

“Traktorlar va transport vositalari” fani bo‘yicha olimpiadasida yuqori o‘rinni egallagan talabalarni, Respublika 11 - bosqich fan olimpiadasida ham yuqori o‘rinni olishlariga ishonch bildirildi.

YBIB bo‘yicha dekan muovini K.Usmonov axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati